

KONSTITUSIYA - ERKIN VA FAROVON HAYOT GAROVI

Yunusov Olimjon HasanovichSamarqand iqtisodiyot va servis instituti,
Ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti,
Yuridik fanlar nomzodi
+998937235543**Xolmurodova Sevara Asqarovna**Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,
“Bank-moliya xizmatlari” fakulteti
MK-323guruh talabasi
missfinancier7.5@gmail.com
+998915307978+998915307978<https://doi.org/10.5281/zenodo.14676865>

Annotatsiya. Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi tuzilishi, mazmuni va ahamiyatini yoritadi. Konstitutsiya mamlakatning oliy yuridik kuchga ega bo'lgan asosiy qonuni sifatida erkin va farovon hayotni kafolatlaydigan oliy yuridik kuchga ega ekanligi. Shuningdek, maqolada Konstitutsiyaning bo'limlari, tarixiy yaratilish jarayoni, undagi o'zgarishlar va islohotlar haqida batafsil ma'lumot berilgan. 2023-yilda qabul qilingan yangi tahrirda inson huquqlari va erkinliklariga oid normalar sezilarli darajada kengaytirilgan bo'lib, bu hujjatning xalqaro huquq normalariga mosligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Yangi tahrirdagi Konstitutsiya, Inson huquqlari va erkinliklari, Demokratik-huquqiy davlat, Fuqarolik jamiyati

Статья освещает структуру, содержание и значение новой редакции Конституции Республики Узбекистан. Подчеркивается, что Конституция как высший юридический акт страны обладает верховенством и гарантирует свободу и благополучие граждан. Статья также подробно рассказывает о разделах Конституции, ее историческом становлении, изменениях и реформах. Отмечается, что в новой редакции, принятой в 2023 году, нормы, касающиеся прав и свобод человека, были значительно расширены, и подчеркивается соответствие этого документа международным правовым нормам.

Ключевые слова: Конституция Республики Узбекистан, Новая редакция Конституции, Права и свободы человека, Демократическое правовое государство, Гражданское общество.

Abstract: This article sheds light on the structure, content, and significance of the new edition of the Constitution of the Republic of Uzbekistan. It emphasizes that the Constitution, as the supreme law of the country, has supremacy and guarantees the freedom and well-being of citizens. The article also provides detailed information about the sections of the Constitution, its historical formation, changes, and reforms. It notes that in the new edition, adopted in 2023, the norms related to human rights and freedoms have been significantly expanded, and the compliance of this document with international legal norms is emphasized.

Key words: Constitution of the Republic of Uzbekistan, new edition of the Constitution, human rights and freedoms, Democratic legal state.

Kirish

Hozirda bozor munosabatlariga asoslanib rivojlanib borayotgan bir huquqiy demokratik davlatda shaxs kamol topishi uchun qanday munosabatlar yo'lga qo'yilgan bo'lishi kerak deb o'ylaysiz?

Dastlab, Konstitutsiyaning kelib chiqish tarixiga to'xtalsak.

“Konstitutsiya” atamasi ilk bor Qadimgi Rim davlati qonunchiligida ishlatilgan bo'lib, tuzulish, belgilash, tartib o'rnatish degan ma'nolarni anglatgan va hozirgidek davlatning asosiy qonunlari jam bo'lgan asosiy hujjatni tavsiflagan. Ma'lum bir omillar tufayli Konstitutsiya davlatchilik munosabati tashkil topganidan ancha kech paydo bo'lgan va tarixan davlatlar bir muncha muddat hech qanday huquqiy asossiz faoliyat yuritgan. Keyinchalik inson huquq va erkinliklarini qonunlarda mustahkamlash hamda davlat va inson o'rtasidagi munosabatlarni huquqiy tartibga solish uchun alohida qonunlar belgilab chiqilgan. Dunyo tarixidagi eng birinchi konstitutsiya 1787-yilda qabul qilingan AQSH Konstitutsiyasidir. Shundan so'ng Polsha va Fransiya konstitutsiyalari qabul qilinadi va hozirgi kunda 200dan ortiq davlatlarning o'z konstitutsiyasi mavjud va amal qiladi.

Agar huquq tizimini bir piramida sifatida tasavvur qilsak, Konstitutsiya shu piramidaning cho'qqisida turadi hamda boshqa barcha yuridik normalar, qarorlar, farmonlar, kodekslar va qonunlar uchun huquqiy asos bo'lish jihati bilan o'zining oliy yuridik kuchini namoyon etadi. Barcha jamoalar uchun umumiy va doimiy konstitutsiya yaratish imkonsiz, har bir avlod o'z konstitutsiyasini yaratish huquqiga ega.

Asosiy qism

O'zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining tuzilishi va vazifalari:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi muqaddima, 6 bo'lim, 27 bob 155 moddadan va 434 normativ- huquqiy hujjatdan iborat.

Muqaddima “O'zbekistonning yagona xalqi” tushunchasi bilan boshlanib, xalqimzning yagona va bo'linmasligiga, bizning orzu-intilishlarimiz, umiminsoniy va milliy qadriyatlarimizga alohida urg'u beradi.

Konstitutsiyaning birinchi bo'limi “Asosiy prinsiplar” deb yuritilib, “Davlat suvereniteti”, “Xalq hokimiyatchiligi”, “Konstitutsiya va qonunng ustunligi”, “Tashqi siyosat” boblariga ajratilgan. Asosiy prinsiplar orqali davlatning boshqaruv, tuzilish shakli va davlat suvereniteti xususiyatlari belgilanadi

Konstitutsiyaning ikkinchi bo'limi “Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari” deb nomlanadi va bu bo'limda davlat va fuqarolarning bir-biriga nisbatan huquq va burchlari o'rtasidagi bog'liqligi, inson va fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklari, fuqarolik masalalari, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlar va burchlari, ularning kafolatlari belgilangan.

Konstitutsiyaning uchinchi bo'limi “Jamiyat va shaxs” deb nomlanib, unda jamiyatimizning iqtisodiy negizlari, fuqarolik institutlari, oila, bolalar va yoshlarga oid masalalar bilan birgalikda ommaviy axborot vositalari (OAV) ning erkinliklari va huquqiy asoslari mustahkamlab qo'yilgan.

To'rtinchi bo'lim "Ma'muriy-hududiy va davlat tuzilishi" deb nom olgan va unda O'zbekistonning ma'muriy- hududiy tuzilishi hamda Qoraqalpog'iston Respublikasining huquqiy holai haqida batafsil yoritilgan.

Konstitutsiyamizning eng katta beshinchi bo'limi "Davlat hokimiyatining tashkil etish" haqida bo'lib, "O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi", O'zbekiston Respublikasi Prezidenti O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Mahalliy davlat hokimiyati asoslari Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, Saylov tizimi, Sud hokimiyati, Advokatura, Prokuratura, Moliya, pul va bank tizimi hamda "Mudofaa va xavfsizlik kabi boblarni o'z ichiga oladi.

So'nggi oltinchi bo'lim esa Konstitutsiyani o'zgartirish tartibiga bag'ishlanadi. Hatto tariximizda ham Konstitutsiya va qonunlarga asoslanib Sohibqiron Amir Temur bobomiz buyuk Temuriylar davlatiga asos solgani va uni adolat bilan boshqargani ma'lum. "Davlat qonunlar asosida qurilmas ekan, unday saltanatning shukhi, qudrati va tarkibi yo'qoladi" deb takidlaganlar ulug' bobomiz. Shu ma'noda, konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta'minlash hozirgi biz bunyod etayotgan Yangi O'zbekiston ya'ni bir demokratik- huquqiy davlatning bosh mezoni bo'lishi kerak.

Davlat mustaqilligi uchun qo'yilgan asosiy qadam sifatida e'tirof etiladigan, 1990-yil 20-iyunda qabul qilingan Mustaqillik deklaratsiyasi yangi konstitutsiya yaratishga asos bo'ldi va ushbu konstitutsion loyihani tayyorlashga 64 kishidan iborat konstitutsiya komissiya tuzildi. Ushbu loyiha 1992-yil 8-dekabr Oliy Kengashning XI sessiyasida ma'qullandi va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi amalga kiritildi. 8 dekabr – O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilingan kun, umumxalq bayrami deb e'lon qilindi. 1992-yil 8-dekabr qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi muqaddima, 6bo'lim, 26 bob va 128 moddadan iborat bo'lgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023- yildagi PF-67-sonli "Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmon qabul qilindi. Mazkur amalga oshirilayotgan islohotlar, insonning sha'ni qadr- qimmat, huquq va erkinliklari bundan buyon barcha sohalarida ustuvor ahamiyat kasb etishini qat'iy qoidaga aylantirish, bitta so'z bilan aytganda, bugungi islohotlarning bosh tamoyili **"INSON-JAMIYAT-DAVLAT"** yondashuvini Konstitutsiyamizning mazmun-mohiyatiga chuqur singdirishni taqozo etadi. 2022 yil 20-may kuni Oliy Majlis palatalarining qo'shma qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish borasida takliflarni shakllantirish va amalga oshirish bo'yicha Konstitutsion Komissiya tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev Konstitutsiyaviy komissiya a'zolari bilan uchrashuv nutqida: "Bosh maqsadimiz—har bir yurtdoshimiz ushbu hujjati mening Konstitutsiyam deb faxrlanadigan mukammal darajaga olib chiqishdir" deb ta'kidlagan edi.

Yangilangan Konstitutsiyamizning eng muhim jihatlari shaxsiy huquq va erkinliklar, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar borasidagi normalar qariyb 3,5 barobarga ko'paygan. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz qabul qilinguniga qadar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga 16 marta o'zgartirish va qo'shimchalar kiritailgan. Ularning asosiy qismi davlat boshqaruvi, Prezident, hukumat va saylov tizimi bilan bog'liq o'zgarishlar edi.

Tariximizda birinchi marotaba 2023-yilning 30-aprel kuni “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonunini xalqimizning o‘zi qabul qildi.Referendumga chiqarishdan oldin konstitutsiya loyihasi bo‘yicha 220 mingdan ortiq takliflar kelib tushgan.Shunga ko‘ra asosiy qonunimiz matni 65 foizga yangilandi.Konstitutsiyamizning eng muhim jihatlari inson, uning hayoti, erkinligi, qadr-qimmati, daxlsiz huquqlari va manfaatlarini ta'minlash, erkin va adolatli fuqarolik jamiyatini rivojlantirish hamda demokratik huquqiy davlat qurish bilan bog'liqdir.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 19-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasida insonning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalariga binoan hamda ushbu Konstitutsiyaga muvofiq e'tirof etiladi va kafolatlanadi. Inson huquq va erkinliklari har kimga tug'ilganidan boshlab tegishli bo'ladi.

Xulosa

Huquqiy demokratik davlatda insonning qadr-qimmati, asosiy huquq va erkinliklarining daxlsizligi, ajralmasligi belgilanishi bilan bir qatorda ular har kimga tug'ilganidan boshlab tegishli ekani tan olinadi.

Fikrimizcha, hech kimga qaram bo'lmasdan, erkin va ozod, tinch va osoyishta, farovon yashash uchun zarur bo'lgan barcha iqtisodiy -ijtimoiy, siyosiy – huquqiy munosabatlarni amalga oshirish imkoniyatlarini kafolatlovchi va tartibga soluvchi muhim qonuniy asos bu konstitutsiyadir. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning quyidagi fikrlarini keltirib o'tish maqsadga muvofiq: **"Biz jamiyatimizda shunday huquqiy madaniyatni shakllantirishimiz kerakki, unga muvofiq konstitutsiya va qonunlarga amal qilish, boshqalarning huquq va erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish majburiyat emas, balki kundalik qoida va odatga aylanishi shart"**.

References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-Toshkent: "O‘zbekiston" nashriyoti, 2023.-80 b
2. <https://lex.uz/m/acts/-20596>
3. <http://www.insonhuquqlari.uz/oz/news/m14205>
4. <http://insonhuquqlari.uz/oz/news/m14279>
5. <https://yoshlarovozi.uz/oz/news/yangi-ozbekistoning-yangi-konstitutsiyasi-erkin-va-farovon-kelajagimiz-poydevori>